



O‘ZBEK TILIDA “HEAD/BOSH” KONSEPTI LISONIY IFODA VOSITALARINING NOMINATIV MAYDONI

Halimova M. M.

*Andijon davlat chet tillari instituti
filiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

Tayanch so‘zlar: konsept, universal konseptual maqomi, nomenklatura, mental birlik, kommunikativ va sintaktik biurliklar.

Ключевые слова: концепт, универсальный концептуальный статус, номенклатура, ментальная единица, коммуникативно-синтаксические единицы.

Key words: concept, universal conceptual status, nomenclature, mental unit, communicative and syntactic units.

Kirish. Konseptlar barcha milliy madaniyatlar konseptosferasi tarkibidan muhim o‘rin olgan, universal tafakkur, ongli faoliyat mahsuli bo‘lib, ular insonlar jamiyati, jamoasi va alohida olingan inson ongida olamdagi, narsa – predmetlar, voqea hodisalar, ular o‘rtasidagi munosabatlar, ularga nisbatan berilgan subyektiv baholar, obraz, ramz va tasavvurlar in‘ikosi sifatida mavjud bo‘lgan muhim va ikkinchi darajali belgi-xususiyatlarni o‘zida jo qilgan, ma’lum mazmun mundarijasiga (bilimlar yig‘indisi)ga ega bo‘lgan mental birliklardir. Shu nuqtai nazardan “bosh” konsepti ham universal konseptual maqomga ega bo‘lib, borliqdagi ifoda etilayotgan predmet yoki voqelik haqidagi ma’lumotlar, ularni ijtimoiy ong orqali interpretatsiya qilinishi, ijtimoiy ongning ularga bo‘lgan munosabatlari, eng muhim belgi-xususiyatlari o‘z aksini topadi.

Shunisi e‘tiborga loyiqki, “bosh” konseptiga aloqador bo‘lgan belgi-xususiyatlarning lisoniy ifoda manzarasi, mazmuniy mundarijasi, ularning kommunikativ xoslanganligi va yorqinlik darajasi turli milliy tillarda turlicha namoyon bo‘ladi va bu tabiiy xoldir. O‘.Q. Yusupovning to‘g‘ri ta’kidlashicha “turli xalqlarda tushunchalar (ponyatiya) nomenklaturasi va mazmuni turlicha ekanligi har bir tilning rivojlanganlik darajasi (ayniqsa leksik sistemasi, nutq stillari), madaniyat, urf – odat, turmush tarzi darajasiga bog‘liq bo‘ladi”.

Metod. Qiyosiy-chog'ishtirma, maydoniy yondashuv, kognitiv modellashtirish, transformatsiya, komponent tahlil, distributiv, statistik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Muhokama. "Bosh" konsepti lisoniy manzarasi haqida gap ketar ekan, dastavval ularning lisoniy verbalizatorlari nomenklaturasini aniqlab olish muhimdir.

Chog'ishtirma tadqiqqa tortilgan o'zbek tili materillarining kognitiv tahlili "head/bosh" konsepti lisoniy verbalizatorlari quyidagilar ekanligini aniqlash imkonini berdi: O'zbek tilida:

1. Ot, sifat so'z turkumiga mansub tub so'zlar: bosh, kalla, bosh (sif.), kal (sifat): Uning katta, yumaloq boshida kir takya, egnida har joyi kuygan, turli dog'lar bilan yiltiragan eski jomakor...; Bunday qisqa-kichik, lekin shiddatli to'qnashishlar natijasida har ikki tomon bir necha kesik kallani, iliqqina qonini oqizib, o'z qarorgohlariga olib qaytardilar; Mardlik, yigitlik nomiga uzib keltirilgan bu boshlar kimniki!; O'sha yili Chingizxon qutli baxt va muborak tole bilan yo'qlik pardasidan borliqning bosh manziliga qadam qo'ydi;

2. Ot, sifat, fe'l, ravish so'z turkumlariga mansub yasama so'zlar: boshchi, boshliq, boshlang'ich, boshlama, boshlanma, boshli, kallavaram, boshsiz, boshlamoq, boshloqlamoq, boshqarmoq, boshiga, boshida, boshidan, boshda, boshdan-oyoq, boshidan boshlab, boshqatdan (rav.) boshqoq, kallapaz, boshlovchi, boshqaruv, kallador, kallapazlik, bebosh. Boshidan boshlansin! Bordi-yu, bitta bo'lsa, o'zining kallasiday qora soya qabr boshida yurdi-yurdi, keyin o'tirdi.

3. Ot, sifat so'z turkumlariga oid qo'shma so'zlar: boshariq, boshbarmoq, boshboshdoq, boshvoq, boshog'riq, bosh-qosh, boshqurt, boshyalang, yalangbosh, kallaxom, boshadoq, kallaxum, kallakesar, boshkesar, boshqorang'i, yurtboshi, boshi-adog'i, ust-bosh. Yurtboshimizning viloyatimizga tashriflari ushbu muammoni oqilona xal qilinishida muhim ahamiyat kasb etdi; Endi esa . . . bosh adog'i marmar bo'ldi!; Eski rais ust-boshi juldur-yirtiq bo'ldi;

Ko'makchili so'zlar: Shunda, onasi qabri boshida. . . oppoq marmar sag'ana ko'rdi!; Qora soya qabr boshida o'tirdi; Eski rais boshi bilan Bo'ri polvon onasi qabriga ishora qildi; Bo'ri polvon rais boshi bilan ishora qilmish tarafaga qaradi;

4. Ot sifat so'z turkumlariga mansub qo'shma yasama so'zlar: boshboshdoqlik, yo'l boshchi, boshvoqsizlik, boshqorong'ilik, boshqotirma, boshpanasiz, boshvoqsiz, boshvoqli, boshpanasiz: Yo'l boshchi serka qomatini g'oz tutdi.



5. Ko‘makchilar (uchun, bilan kabi, yarasha, boshlab, old, orqa, singari, oldin, avval, ost, tag,sari, tomon) va ko‘makchi fe‘l (ko‘r, ber, qol, tush, kel kabilar)li o‘tli birikmalar: Boshga tushgan (kelgan), boshi bilan, bosh tomonida: Dafnda hozir bo‘lgan kishi qabrning bosh tomonida turib unga uch siqim tuproq tashlashi mustahabdir.

6. So‘z birikmalari: bosh egmoq, boshini quyi solmoq, so‘z boshi, do‘ppi (telpak) kiymoq, bosh bilan zarba berish, boshvoq solmoq, kalla qo‘ymoq, kalla pishirmoq, boshini qashlamoq, kemani boshqarmoq, prezidentlik boshqaruvchi, kallapazlik qilmoq, kalla-pochani ajratmoq, kallaxom charm, kallaxum yigit, kalla go‘shiti, kalla kuydirmoq, bosh xotin. Bekasini hozirgina saroydan kanizak kelib, podshohning bosh xotini Beka Sultonbegimning ziyofatiga olib ketganligini bildirdi. Poytaxtimizda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston – Pokiston Ishbilarmonlar kengashining birinchi yig‘ilishida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari – investitsiyalar va tashqi savdo vaziri Sardor Umurzoqov ishtirok etdi. “O‘zbekiston 30 yoshgacha bo‘lganlar soni aholining uchdan ikki qismini tashkil etadigan muhim demografik davr ostonasida turibdi”, - deb yozadi Avstriyaning ommabop nashrlaridan biri bo‘lgan “Society” jurnali bosh muharriri Tanya Tauxammer;

7. Frazelogik birliklar: boshiga suv quymoq, boshiga minib olmoq, boshini ikkita qilmoq, boshi ketmoq, boshini bog‘lamoq, boshi ochiq, bosh qosh bo‘lmoq, boshi yostiqa tekanda, bir yostiqa bosh qo‘ymoq, bosh suqmoq, kalla(si) g‘ovlab ketmoq. Achchig‘lanma, bek yigit, o‘zi uyatchan qiz, yana boshi bog‘liq; U ellik besh yillik umrining yarmidan ko‘pini yolg‘iz boshiga bu xonada kimyo ilmi mashg‘ulotiga bag‘ishlagan edi; Dushman yigitlari qilichlashishdan bosh tortib zarbalardan o‘zlarini olib qochishga urinib qoldilar; Ayni vaqtda O‘zbekiston asrga tatigulik o‘zgarishlarni boshidan kechirmoqda; . . . Dunyoning ba‘zi mintaqalarida aholi keskin oziq-ovqat taqchilligini boshidan, darhaqiqat, ayol boshi bilan kechirayotgani kuzatilmoqda;

8. Paremlar: Ersiz xotin – boshvoqsiz ot; Boshliq bo‘lish oson, Boshlamoq qiyin; Har kallada har hayol. Bir boshga bir o‘lim, Egilgan boshni qilich kesmaydi. Bitar ishning boshiga, yaxshi kelar qoshiga; Boshi qorong‘iga olam qorong‘i; Tog‘ning ko‘rki tosh bilan, odamning ko‘rki bosh bilan; Shamol bo‘lmasa, daraxtning boshi qimirlamaydi; Qo‘shnimning oshi – janjalning boshi; Baliq boshidan sasiydi. Otga minsang – boshingi o‘yla, yerga tushsang otingni o‘yla!

Yuqorida “head/bosh” konseptiga xos belgi-xususiyatlar ichki nutqda konseptni shakllantirishga uning lisoniy manzarasini yaratishga hizmat qiladi. Ichki nutq har qanday konsept va uning belgilarini lisoniy libos kasb etishdan

avval ongda sodir bo‘ladigan tabiiy jarayon bo‘lib, konseptning verballashuvi, busiz mumkin emas. Boshqacha aytganda, har qanday ijtimoiy guruh a‘zosi ma‘lum nutqiy muloqot vaziyatida aloqa-aralashuvga kirishishdan avval o‘z nutqiy faoliyatini rejalashtiradi, uning nazoratini olib boradi, so‘z va jummalarni tanlaydi, fikr realizatsiyasi uchun zarur bo‘lgan mazmun yoki mazmunlar mundarijasini sintezlaydi. Natijada endi paydo bo‘ladigan jumlaning predikativ mazmuni paydo bo‘ladi. Buni N.F. Alefirenko fikriga qo‘shilgan xolda, ichki nutqning protoverbal belgilari deb atash maqsadga muvofiq.

Turli funksional uslublarga xos matnlar, ingliz va o‘zbek tillari izohli, frazeologizmlar lug‘atlari ustida o‘tkazilgan statistik tahlillar asosida “head” va “bosh” nominativ maydonlarini tashkilovchi ifoda vositalarining maydon sathi uzra tutgan o‘rni, maqomini aniqlashga harakat qildik.

Natija. Tahlilga tortilgan manba va matnlarning o‘rtacha hajmi 5000 sahifani tashkil etdi.

№	Boshning lisoniy ifoda vositalari	Soni	% i
1	Tub so‘zlar: Ot Sifat	265 187 78	11,4 8,1 3,3
2	Yasama so‘zlar Ot Sifat Fe‘l Ravish	268 75 127 14 52	11,6 3,2 5,5 0,6 0,2
3	Qo‘shma so‘zlar: Ot q.s. Sifat q.s.	193 138 58	8,3 5,9 2,5
4	Qo‘shma yasama so‘zlar Ot qyas. Sifat qyas.	90 64 26	3,9 2,7 1,1
5	So‘z birikmalari	436	18,9
6	Frazeologik birliklar	179	7,7
7	Paremiyalar	97	4,2
8	Gaplar : Sodda gaplar Murakkab tarkibli gaplar Bog‘langan qo‘shma gaplar Ergash gapli qo‘shma gaplar	570 81 139 123 227	24,7 3,5 6,0 5,3 9,8
9	Matn (ikki yoki undan ortiq mazmunan bog‘langan gaplar)	70	3,0
10	Paralingvistik vositalar	127	5,5
Jami:		2305	100%



O'zbek tilida mazkur konseptning lisoniy manzarasini tashkil etishdagi eng faollari yasama va tub so'zlar (11.6 %; 11.4%) bo'lib, yasama so'zlar uchinchi pog'onani egallamoqda. So'z turkumlariga mansubligi nuqtai nazaridan ushbu sistemada sifat so'z turkumi birinchi (5.5 %), ot ikkinchi (3.2%), fe'l uchinchi (0.6%), ravish esa (0.2%,) eng so'nggi pog'onani egallamoqda.

Shuni ta'kidlash joizki, o'zbek tilida "bosh" konseptual semantikasini leksik ifoda vositalari orasida fe'l va ravish so'z turkumlarining ulushi ingliz tilidagi muvofiq so'z turkumlariga hisob-kitoblar nisbatan ancha past. Ingliz tilida ravish so'z turkumining fe'l so'z turkumiga nisbatan faolligini ko'rsatgan bo'lsa, o'zbek tilida buning aksi kuzatildi, ya'ni ravish faqat yasama so'zlar tarkibida kelib (0.2 %), boshqa turdagi leksemalar tarkibida kuzatilmaydi.

"Head/bosh" konsepti chog'ishtiralayotgan tillarda so'z birikmalari orqali ifodalansa-da, ular faollik darajalariga ko'ra (14.8 % ingliz tilida, 18.9 % o'zbek tilida) bir-birlaridan keskin farq qiladilar.

Tahlillar, o'zbek tilining frazeologik imkoniyatlari ingliz tili imkoniyatlaridan ko'ra ancha keng (7.7 %, 5.4 %) ekanligini ko'rsatdi.

Yuqorida tilga olingan verbal va noverbal vositalar jonli tillarda aloqaralashuv yoki muloqotning eng muhim va asosiy sintaktik verbalizatori bo'lgan gaplar tarkibida uchraydilar, aynan gap tarkibida ularning bosh va hosila ma'no(sema)lari o'zining haqiqiy xususiyatlarini namoyon etadilar. Shu nuqtai nazardan, "head/bosh" konseptining lisoniy manzarasi sodda, murakkab tarkibli sintaktik birliklar orqali namoyon bo'lishni inobatga olgan xolda, ular borasida ham tahlillar o'tkazildi. Shunisi qiziqarliki, chog'ishtirilayotgan tillarda ergash gapli qo'shma gaplar bu borada dominantlik xususiyatiga ega (ingliz tilida 9.5 %, o'zbek tilida 9.8%); murakkab tarkibli sodda gaplar ikkinchi (5.3%; 6.0 %), pog'onani egalladi. Lekin ingliz tilida keyingi pog'onani sodda gaplar (4 %) egallangan bo'lsa, o'zbek tilida bu o'rinni bog'langan qo'shma gaplar (5.3 %) egallamoqda. Ushbu konseptual semantikani o'zbek tilida sodda gaplar orqali ifodalanishi nisbatan kam uchrashi (3.5 %) kuzatildi.

Minimal hajmdagi matn hisoblanmish, ya'ni ikki yoki undan ortiq mazmunan bog'langan gaplar ham "head/bosh" konseptual semantikasi ifoda vositalaridan biri sifatida tahlilga tortilganda unday vositalarning har ikki til lisoniy manzarasidagi ulushi kam ekanligini ko'rsatdi (ingliz tilida 2.4%; o'zbek tilida 3.0%)

Til va nutq dixotomiyasi nuqtai nazaridan "head/bosh" konsepti verbalizatorlarini ham til, ham nutq verbalizatorlariga, muvofiq ravishda lisoniy va nuqtiiy nominativ maydonlarga ajratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Maydonlarni quyidagi diagramma ko'rinishda tasavvur etish mumkin:

Har bir konstituent maydon uzra o‘z o‘rni va maqomiga ega ekanligini statistik va komponent tahlillar orqali aniqlandi: Qarang: Ilova 3,4

Kuzatishlarimiz shuni ko‘rsatdiki, “head/bosh” nominativ maydonini tashkil etuvchi leksik birliklar so‘z turkumlari nuqtai nazaridan ham turli semantik yorqinlik va faollik darajalariga egadir.

Shu nuqtai nazardan chog‘ishtirilayotgan tillarda bir asosli leksemalar orasida ot so‘z turkumiga mansub so‘zlar mazkur semantika ifodasida yuqori yorqinlik va faollik darajalarini namoyon etadilar (9.7%; 8.1%).

Ingliz tilida bir asosli fe‘llar shunday sifatlarga nisbatan faol ekanligi, o‘zbek tilida esa aksincha, bir asosli sifatlar faolligi kuzatildi, bir asosli fe‘llar orqali ushbu semantik maydon ifodalanmasligi aniqlandi.

“Head/bosh” semantikasiga ega yasama leksemalar har ikki tilda ot, sifat, ravish va fe‘l so‘z turkumlariga mansubligi aniqlandi, lekin sifat so‘z turkumiga tegishli yasama leksemalar har ikki tilda dominantlik xususiyatiga ega ekanligi (6.6%; 5.5%), undan keyingi o‘rinni ot so‘z turkumiga mansub leksemalar egallayotgani (5.4%; 3.2%), ravish va fe‘l yasama leksemalar bu borada nisbatan faol emasliklari (0.7%; 0.4% va 0.6%; 0.2%) aniqlandi.

Shuni ta’kidlash lozimki, ingliz tilida ravish vazifasidagi yasama so‘zlar fe‘l yasama so‘zlarga nisbatan faolroq, o‘zbek tilida esa fe‘l yasama so‘zlar ravish yasama so‘zlarga nisbatan faolroq ekanligi kuzatildi (0.7%; 0.4% va 0.65%; 0.2%).

Ot va sifat qo‘shma yasama so‘zlar o‘zbek tillariga xos bo‘lib, ravish yasama so‘zlar o‘zbek tilida kuzatilmadi. Shunisi qiziqarliki, har ikki tilda “head/bosh” semantikasi verballashuvda faol bo‘lgan so‘z turkumi bu ot so‘z turkumi ekanligi taxlillar orqali ma’lum bo‘ldi. Shuningdek, ingliz tilida “head/bosh” semantikasi verbalizatorlari o‘zbek tiliga nisbatan miqdor jihatidan ham, faolligiga ko‘ra ham ko‘p ekanligi (2546/2305) aniqlandi.

Xulosa. Demak, “bosh” konsepti turli predmet, hodisalar, holatlar qurshovida va ular bilan munosabatga kirishishi oqibatida ham turlicha belgi-xususiyatlar kasb etadi. Masalan, bir yoqadan boshi chiqarmoq (bir jon, bir tan bo‘lib, hamjihatlik, yakdillik bilan), boshi bog‘liq (unashtirilgan), boshiga yetmoq (o‘ldirmoq, halok qilmoq, nobud qilmoq), boshiga chiqib olmoq (birovga hukmron yoki xo‘jayin bo‘lmoq, bo‘ysunmay qo‘ymoq), boshi qorong‘i (ba’zi homilador ayollarda homiladorlikning dastlabki oylarida bo‘ladigan holat, ahvol (mas. biror narsani tusash yoki unga toqat qilmaslik) kabilar.

“Bosh” konsepti olamning konseptual manzarasi bo‘lagi sifatida ingliz, o‘zbek va boshqa xalqlar konseptosferasida mavjud ekan, ularning har biri kognitiv belgi-xususiyatlar, tarkibi, yorqinlik darajasi boshqa qavm va qavm



bo‘lmagan konseptlar bilan munosabati kabilarga ko‘ra o‘hshash va farqli jihatlarga ega bo‘ladilar. Bu xol ushbu konseptlar lisoniy manzara kasb etganda ham kuzatiladi. Shu nuqtai nazardan mazkur konseptlarga xos belgi-xususiyatlarni yagona konseptual nominativ maydonga jamlab, bunga xamohang ravishda ularning lisoniy verbalizatorlari maydoni miqyosi, konstituentlarning maydon uzra tutgan o‘rnini aniqlash juda muhimdir.

Adabiyotlar:

1. Бабушкин А.П., Стернин И.А. Когнитивная лингвистика и семасиология. – Воронеж, 2018.
2. Зыкова, С.А. Способы выражения доминирующей маскулинности в лексическом фонде испанского языка // Вестн. ТГУ. – Тамбов, 2009. № 1. – С. 25–29..
3. Кабирова Г.У. Оценка как языковой концепт // Актуальные вопросы филологических наук: материалы Междунар. науч. конф. – Чита: Издательство Молодой ученый, 2011. – С. 85–87.
4. Категоризация как всеобщая процедура познавательной деятельности. URL: <http://ideashistory.org.ru/pdfs/phss09g3p2.pdf>.
5. Вендина Т. И. Семантика оценки и её манифестация средствами словообразования // Славяноведение. 1997. Вып. –4. – С. 41–48.
6. Ойбек. Навоий. – Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2016. – Б. 59.
7. Рахимов, Ж. И. Язык современной литературы / Ж. И. Рахимов, Ю. Ш. Рузметова. — Текст : Аватар // Молодой ученый. – 2018. – № 24 (210). С. –359–360.
8. Тоғай Мурод. – Б. 148; 122; 69
9. Андижоннома, 2021. 17.07.2
10. Юсупов Ў.К. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультуре атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида: Илмий амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011. – Б. 49.
11. Юсупов Ў.К. Маъно, тушунча, концепт ва лингвокультуре атамалари хусусида // Стилистика тилшуносликнинг замонавий йўналишларида: Илмий амалий конференция материаллари. – Тошкент, 2011. – Б. 49.
12. Якубов Ж. Тилшуносликда концепт ва категория терминларига доир баъзи мулоҳазалар. – Хорижий адабиётшунослик ва таржимашуносликнинг долзарб масалалари. Илмий мақолалар тўплами. Муҳаммадjon Ҳолбековнинг 70 йиллик юбилейига бағишланади. Самарқанд давлат чет тиллар институти. – Самарқанд, 2020. – Б. 41–46.

РЕЗЮМЕ

Maqolada o‘zbek tilida “head/bosh” konsepti lisoniy ifoda vositalarining nominativ maydoni xususida so‘z boradi, muallif ilmiy natijalarini misollar yordamida aniqlashtirgan va dalillagan. “bosh” konseptiga aloqador bo‘lgan belgi-xususiyatlarning lisoniy ifoda manzarasi, mazmuniy mundarijasi, ularning kommunikativ xoslanganligi va yorqinlik darajasi turli milliy tillarda turlicha namoyon bo‘lishi ochib berilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье понятие «голова» в узбекском языке речь идет о номинативном поле языковых средств, автор уточнил и доказал свои научные результаты с помощью примеров. Выявлено, что ландшафт языковых высказываний, смысловое содержание, их коммуникативная специфика и уровень яркости знаков-характеристик, связанных с концептом «голова», проявляются по-разному в разных национальных языках.

SUMMARY

In the article, the concept of «head» in the Uzbek language is about the nominative field of linguistic means, the author clarified and proved his scientific results with the help of examples. It is revealed that the landscape of linguistic expression, meaningful content, their communicative specificity and brightness level of the signs-characteristics related to the concept of «head» are manifested differently in different national languages.